



## AYOLLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDA SUD AMALIYOTI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

*Toshmamatova Shaxrizoda Dilmurod qizi*

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti*

*“Yurisprudensiya” yo‘nalishi 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ayollar huquqlarini himoya qilishda sud amaliyotining o‘rni, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi. Maqolda sud tizimida ayollar bilan bog‘liq ishlarni ko‘rib chiqishda uchrayotgan muammolar: huquqiy ong va madaniyat darajasining yetarli emasligi, dalillarni baholashdagi kamchiliklar, sud qarorlarining bir xilda qo‘llanilmasligi kabi holatlar yoritilgan. Maqolada xalqaro tajriba va milliy qonunchilik asosida ayollar huquqlarini samarali himoya qilishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** ayollar huquqlari, sud amaliyoti, gender tengligi, huquqiy himoya, sud qarorlari, diskriminatsiya, oilaviy nizolar, inson huquqlari.

### **Kirish.**

Hozirgi globallashuv sharoitida inson huquqlarini ta‘minlash, ayniqsa, ayollar huquqlarini himoya qilish masalasi xalqaro hamjamiyat e‘tiborida turgan ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Gender tengligini ta‘minlash, ayollarning jamiyatdagi o‘rni va rolini mustahkamlash, ularni turli ko‘rinishdagi kamsitish va zo‘ravonliklardan himoya qilish bugungi kunda barqaror rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, ayollar huquqlarini himoya qilish masalasi nafaqat ijtimoiy, balki huquqiy, iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ham ega bo‘lib, davlat siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda.



O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda ayollar huquqlarini ta‘minlash va ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mamlakat Konstitutsiyasida erkaklar va ayollar teng huquqliligi alohida norma sifatida belgilab qo‘yilgan bo‘lib [1], bu prinsip jamiyatda gender tengligini ta‘minlashning asosiy huquqiy kafolati hisoblanadi. Shu bilan birga, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi ushbu sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqdi [2]. Mazkur hujjat ayollar va erkaklar o‘rtasida tenglikni ta‘minlash, diskriminatsiyaga yo‘l qo‘ymaslik hamda davlat organlarining bu boradagi majburiyatlarini aniq belgilab berishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, ayollarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish, ularning huquqiy savodxonligini oshirish, ijtimoiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish borasida ham muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Davlat dasturlari va Prezident qarorlari orqali ayollarga bepul huquqiy yordam ko‘rsatish tizimi kengaytirilmoqda, oilaviy nizolarni sudgacha hal etish mexanizmlari takomillashtirilmoqda hamda ayollarning sud organlariga murojaat qilish imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Bu esa o‘z navbatida, ayollarning o‘z huquqlarini faol himoya qilishiga zamin yaratmoqda.

Ayollar huquqlarini ta‘minlashda sud tizimining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Sud organlari inson huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi eng muhim institutlardan biri sifatida ayollarning buzilgan huquqlarini tiklashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ayniqsa, oilaviy nizolar, mehnat munosabatlari, mulkiy masalalar va zo‘ravonlik bilan bog‘liq ishlarni ko‘rib chiqishda sudlarning faoliyati bevosita ayollar huquqlarining qay darajada himoya qilinayotganini namoyon etadi. Shu jihatdan qaraganda, sud amaliyotining samaradorligi nafaqat qonunchilik darajasiga, balki uni amalda qo‘llash mexanizmlariga ham bevosita bog‘liqdir. Xalqaro tajriba ham shuni ko‘rsatadiki, ayollar huquqlarini samarali himoya qilish uchun nafaqat mukammal qonunchilik bazasi, balki genderga sezgir sud tizimi, malakali sudyalalar va aholining yuqori huquqiy ong darajasi zarur hisoblanadi. Birlashgan Millatlar



Tashkiloti, xususan, uning Taraqqiyot dasturi tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ayollarning odil sudlovdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, sud tizimida gender yondashuvini joriy etish va ayollarga nisbatan kamsitish holatlarini bartaraf etish muhim vazifalar sifatida belgilangan [3]. Biroq, mavjud ijobiy o'zgarishlarga qaramay, amaliyotda ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, ayrim hollarda ayollarning sudga murojaat qilishdan cho'chishi, huquqiy bilimlarning yetarli emasligi, sud qarorlarining bir xilda qo'llanilmasligi hamda dalillarni baholash jarayonidagi kamchiliklar ushbu sohada dolzarb muammolar sifatida namoyon bo'lmoqda. Bundan tashqari, ijtimoiy stereotiplar va an'anaviy qarashlar ham ayollarning o'z huquqlarini himoya qilishiga ma'lum darajada to'sqinlik qilmoqda.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur tadqiqotda ayollar huquqlarini himoya qilishda sud amaliyotining o'rni va samaradorligini aniqlash maqsadida bir qator ilmiy usullardan foydalanildi. Avvalo, tahlil va sintez metodlari orqali mavjud ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda sud amaliyoti materiallari o'rganildi va umumlashtirildi. Statistik tahlil usuli yordamida sudlarga oid rasmiy ma'lumotlar, xususan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan e'lon qilingan ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Taqqoslash metodi orqali milliy sud amaliyoti xalqaro tajriba bilan solishtirildi hamda o'xshash va farqli jihatlar aniqlab olindi. Shuningdek, tizimli yondashuv asosida ayollar huquqlarini himoya qilish mexanizmlari o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqildi. Empirik tahlil doirasida sud qarorlari va amaliy holatlar misolida muammolar o'rganildi. Induksiya va deduksiya metodlari yordamida umumiy xulosalar chiqarilib, aniq taklif va tavsiyalar shakllantirildi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash maqsadida ochiq manbalar va rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar.**



Ayollar huquqlarini himoya qilishda sud amaliyotining samaradorligini baholash uchun O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda e‘lon qilingan rasmiy statistik ma‘lumotlar, davlat organlari hisobotlari hamda xalqaro tashkilotlar tahlillari o‘rganildi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, mamlakatda ayollar huquqlarini ta‘minlash borasida sezilarli institutsional o‘zgarishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, sud amaliyotida hali ham muayyan muammolar mavjud. Avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan e‘lon qilingan ma‘lumotlarga ko‘ra [4], fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlar faoliyatida oilaviy nizolar muhim ulushni tashkil etadi. Xususan, aliment undirish, nikohdan ajratish hamda voyaga yetmagan bolalar taqdiri bilan bog‘liq ishlar sudlarda eng ko‘p ko‘riladigan toifalardan biridir. Bu esa ayollar huquqlari bilan bog‘liq nizolar asosan oilaviy munosabatlar doirasida yuzaga kelayotganini ko‘rsatadi. Shuningdek, ayollarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlari bo‘yicha statistik ma‘lumotlar ham muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ma‘lumotlariga ko‘ra [5], so‘nggi yillarda ayollarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarini aniqlash va rasmiy qayd etish tizimi sezilarli darajada kuchaytirilgan. Xususan, 2023-yilda respublika bo‘yicha 40 mingdan ortiq tazyiq va zo‘ravonlik holatlari qayd etilgan. Ushbu ko‘rsatkichning oshishi bir tomondan muammoning mavjudligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, ayollarning huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilish faolligi ortayotganini anglatadi. Bundan tashqari, zo‘ravonlikdan jabrlangan ayollarni himoya qilish maqsadida joriy etilgan “himoya orderi” instituti amaliyotda keng qo‘llanilmoqda. Rasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, 2023-yilda 30 mingga yaqin himoya orderlari berilgan. Bu esa davlat tomonidan ayollarni tezkor himoya qilish mexanizmlari yo‘lga qo‘yilganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ushbu orderlarning samaradorligi va ijrosi masalasi ham alohida e‘tiborni talab etadi.

Sud amaliyoti tahlili shuni ko‘rsatadiki, aliment undirish bilan bog‘liq ishlarning katta qismi ayollar foydasiga hal etiladi. Bu holat amaldagi qonunchilikning ijtimoiy himoya yo‘nalishiga ega ekanligini bildiradi. Biroq,



mulkiy nizolar, mehnat huquqlari va zo‘ravonlik bilan bog‘liq murakkab ishlar bo‘yicha qarorlar chiqarishda ayrim qiyinchiliklar kuzatilmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturi tomonidan O‘zbekistonda o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, ayollarning sud tizimiga murojaat qilish darajasiga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, so‘rov natijalarida ayollarning qariyb 30–35 foizi huquqiy bilimlarning yetarli emasligini sudga murojaat qilmaslikning asosiy sababi sifatida ko‘rsatgan. Bundan tashqari, ijtimoiy stereotiplar, oilaviy bosim va iqtisodiy qaramlik ham muhim to‘siqlar sifatida qayd etilgan. Yana bir muhim jihat - sud tizimida gender yondashuvining shakllanish darajasi hisoblanadi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, ayollar huquqlarini samarali himoya qilish uchun sudyalalar va huquqni qo‘llovchi organlar xodimlarining gender masalalariga nisbatan sezgirligi muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda sudyalalar malakasini oshirish kurslarida gender tengligi masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra [6], ayollarning umumiy aholi tarkibidagi ulushi 49–50 foizni tashkil etadi. Bu esa ayollar huquqlarini ta’minlash masalasi jamiyatning deyarli yarmi manfaatlariga bevosita taalluqli ekanligini anglatadi. Shu sababli, sud tizimi faoliyatida gender tengligini ta’minlash strategik ahamiyatga ega.

Tahlillar shuni ham ko‘rsatadiki, bepul yuridik yordam tizimining joriy etilishi ayollarning sudga murojaat qilish imkoniyatlarini kengaytirgan. Xususan, kam ta’minlangan ayollar uchun davlat hisobidan advokat ajratilishi ularning huquqiy himoyasini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Biroq, ushbu tizimning hududlar kesimida bir xil darajada ishlamayotgani kuzatilmoqda.

Natijalar umumlashtirilganda, O‘zbekistonda ayollar huquqlarini sud orqali himoya qilish tizimi sezilarli darajada rivojlanayotganini ko‘rish mumkin. Xususan, zo‘ravonlikka qarshi kurashish mexanizmlarining joriy etilishi, himoya orderlari tizimi, sudlarga murojaat qilish imkoniyatlarining kengayishi ijobiy natijalar bermoqda. Shu bilan birga, huquqiy savodxonlikning yetarli emasligi, sud



amaliyotida yagona yondashuvning to'liq shakllanmaganligi hamda ijtimoiy omillar ta'siri kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Shu bois, sud amaliyotini yanada takomillashtirish, ayollar uchun huquqiy yordam tizimini kengaytirish hamda gender tengligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

### **Muhokama.**

Olib borilgan tahlillar natijalari shuni ko'rsatadiki, ayollar huquqlarini sud orqali himoya qilish tizimi O'zbekistonda bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda. So'nggi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, institutsional o'zgarishlar hamda amaliy mexanizmlarning joriy etilishi ushbu sohada muhim ijobiy natijalarga erishishga xizmat qilmoqda. Xususan, ayollarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurashish tizimining kuchaytirilishi, himoya orderlari institutining joriy etilishi hamda bepul yuridik yordam tizimining kengaytirilishi sud amaliyotining samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Biroq, tahlil natijalari sud amaliyotida ayrim tizimli muammolar mavjudligini ham ko'rsatadi. Eng avvalo, ayollarning sudga murojaat qilish faolligi oshayotgan bo'lsa-da, ularning barchasi ham o'z huquqlarini to'liq himoya qila olmayapti. Bu holat ko'pincha huquqiy savodxonlikning yetarli darajada emasligi, protsessual tartib-taomillarning murakkabligi hamda ijtimoiy-psixologik to'siqlar bilan izohlanadi. Ayniqsa, an'anaviy qarashlar ustun bo'lgan hududlarda ayollarning sudga murojaat qilishdan tiyilishi kuzatiladi. Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar ham ayollar uchun odil sudlovdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sud tizimida gender yondashuvining yetarli darajada shakllanmagani ayrim hollarda qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu esa ayollar huquqlarining to'liq va xolis himoya qilinishiga to'sqinlik qiluvchi omillardan biri sifatida baholanadi. Bundan tashqari, sud qarorlarining bir xilda qo'llanilmasligi muammosi ham muhokama talab etadi. Bir xil turdagi ishlar



bo'yicha turli hududlarda turlicha qarorlar qabul qilinishi huquqni qo'llash amaliyotida yagona standartlarning yetarli darajada shakllanmaganini ko'rsatadi. Bu esa fuqarolarning sud tizimiga bo'lgan ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, sud amaliyotini umumlashtirish va yagona yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy jihatlardan biri dalillarni baholash masalasidir. Ayniqsa, ayollarga nisbatan zo'ravonlik bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqishda dalillar bazasining yetarli emasligi yoki ularni to'plashdagi qiyinchiliklar sud qarorlarining adolatli qabul qilinishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu esa huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sudlar hamda boshqa tegishli institutlar o'rtasida samarali hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi faoliyatida sudyalarning malakasini oshirish, ularning gender masalalari bo'yicha bilimlarini kengaytirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar ijobiy baholanishi lozim. Chunki sudyalarning professional tayyorgarligi va masalaga xolis yondashuvi sud qarorlarining sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

### **Xulosa va takliflar.**

Olib borilgan tahlil va muhokamalar natijasida shuni xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston Respublikasida ayollar huquqlarini sud orqali himoya qilish tizimi so'nggi yillarda sezilarli darajada takomillashib bormoqda. Xususan, ayollarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurashish mexanizmlarining joriy etilishi, himoya orderlari institutining amaliyotga tatbiq etilishi hamda bepul yuridik yordam tizimining kengaytirilishi ayollar huquqlarini ta'minlashda muhim ijobiy natijalar bermoqda. Sud organlarining inson huquqlarini himoya qilishdagi roli tobora ortib borayotgani ham kuzatilmoqda. Shu bilan birga, o'rganishlar natijasida ushbu sohada qator muammolar mavjudligi aniqlandi. Jumladan, ayollarning huquqiy savodxonligining yetarli emasligi, sudga murojaat qilishdagi ijtimoiy-psixologik to'siqlar, sud qarorlarining bir xilda qo'llanilmasligi hamda dalillarni baholash jarayonidagi kamchiliklar ayollar huquqlarini to'liq ta'minlashga salbiy ta'sir



ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, ayrim hollarda sud amaliyotida gender yondashuvining yetarli darajada shakllanmaganligi ham muhim muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

Birinchidan, ayollarning huquqiy savodxonligini oshirish zarur. Bu borada ommaviy axborot vositalari, ta'lim muassasalari hamda fuqarolik jamiyati institutlari orqali muntazam ravishda tushuntirish ishlari olib borilishi lozim. Mazkur taklifning asoslanishi shundaki, huquqiy bilim darajasi yuqori bo'lgan shaxs o'z huquqlarini himoya qilishda faolroq bo'ladi va sudga murojaat qilishdan cho'chimaydi. Natijada, sud orqali himoya mexanizmlarining samaradorligi oshadi.

Ikkinchidan, sud tizimida gender yondashuvini kuchaytirish lozim. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tizimida sudyalari va sud xodimlari uchun gender tengligi masalalari bo'yicha maxsus o'quv kurslarini joriy etish maqsadga muvofiq. Bu taklif sud qarorlarining xolis va adolatli qabul qilinishini ta'minlashga xizmat qiladi, chunki gender sezgirlik sud amaliyotida muhim omillardan biri hisoblanadi.

Uchinchidan, sud amaliyotini yagona standartlar asosida takomillashtirish zarur. Bir xil turdagi ishlar bo'yicha yagona yondashuvni ta'minlash maqsadida sud amaliyotini umumlashtirish va metodik tavsiyalar ishlab chiqish lozim. Ushbu taklifning asosiy maqsadi hududlar kesimida turlicha qarorlar qabul qilinishining oldini olish hamda fuqarolarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlashdir.

To'rtinchidan, ayollarga bepul yuridik yordam ko'rsatish tizimini yanada kengaytirish lozim. Ayniqsa, chekka hududlarda yashovchi va ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollar uchun advokat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish muhim ahamiyatga ega. Bu taklif ayollarning sudga murojaat qilish imkoniyatlarini kengaytiradi va ularning huquqiy himoyasini kuchaytiradi.



Beshinchidan, ayollarga nisbatan zo‘ravonlik bilan bog‘liq ishlar bo‘yicha dalillar bazasini mustahkamlash zarur. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, sud organlari va tibbiyot muassasalari o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish talab etiladi. Mazkur taklif zo‘ravonlik holatlarini to‘liq va xolis o‘rganish imkonini beradi hamda sud qarorlarining adolatliligini ta‘minlaydi.

Oltinchidan, ayollarning sudga murojaat qilishiga to‘sqinlik qilayotgan ijtimoiy omillarni kamaytirish bo‘yicha kompleks choralar ko‘rish lozim. Bu borada ijtimoiy kampaniyalar, psixologik yordam xizmatlari va ishonch telefonlari faoliyatini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu taklif ayollarning o‘z huquqlarini himoya qilishda faol bo‘lishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, ayollar huquqlarini sud orqali himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish uchun kompleks yondashuv zarur. Faqatgina qonunchilikni takomillashtirish bilan cheklanib qolmasdan, amaliy mexanizmlarni rivojlantirish, huquqiy madaniyatni oshirish va institutsional hamkorlikni kuchaytirish orqali ushbu sohada yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Bu esa o‘z navbatida jamiyatda gender tengligini ta‘minlash va adolatli huquqiy tizimni shakllantirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023, <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.09.2019 yildagi O‘RQ-562-son. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”.
3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturi O‘zbekiston bo‘yicha gender tengligi va sud tizimi haqidagi hisobotlari. [www.un.org](http://www.un.org)
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi rasmiy statistik ma‘lumotlari va yillik hisobotlari. [www.stat.sud.uz](http://www.stat.sud.uz)



5. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi axborot-tahliliy materiallari.  
[www.gov.uz/uz/iiv](http://www.gov.uz/uz/iiv)
6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy ma’lumotlari.  
[www.stat.uz](http://www.stat.uz)